

Ona tili fanidan online test

1. Gap qaysi qatorda berilgan?

bog‘lar go‘zal

qop-qora ko‘zlar

achchiq piyoz

katta umid

2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonini tugallagach, uni kimga taqdim etadi?

Eltarish xoqonga

Nosiriddin To‘qbug‘axonga

Tavg‘ach Ullug‘ Bug‘ra Qoraxonga

Bo‘g‘u Tarxonga

3. Tobe so‘z bilan hokim so‘zning birikish usullari ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

moslashuv, boshqaruv, bitishuv

tobe so‘z va hokim so‘zning mosligi

tobe so‘z va hokim so‘z

tobe bog‘lanish va ergash bog‘lanish

4. Qaysi hukm noto‘g‘ri?

So‘z birikmalar ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalashga xizmat qiladi

So‘z – leksik hodisa, so‘z birikmasi grammatick hodisadir

So‘z – tushuncha, so‘z birikmasi esa fikr ifodalaydi

Lug‘atlarda so‘zning ma’nosini ochib berishda so‘z birikmalaridan foydalilanildi

5. Said Ahmadning dastlabki hikoyalari to‘plami qanday nomlanadi va u qachon chop etilgan?

“Tortiq” 1940-yil

“Er yurak” 1944-yil

“Cho‘1 burguti” 1941-yil

“Farg‘ona hikoyalari” 1939-yil

6. Otli so‘z birikmasi berilgan qatorni aniqlang.

havo rang

vazifasini bajargan

og‘zi qulog‘ida

o‘qishda birinchi

7. So‘z qo‘silmasisidagi so‘zlarning teng bog‘lanishi qaysi qatorda berilgan?

adolat va insof, suv va havo

nafis tuyg‘u, xalq tabobati

maktab hovlisi, keng uy

xom meva, yaxshi o‘snoq

8. Hokim so‘z fe‘lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan so‘z birikmasi berilgan qatorni aniqlang.

qiyinchilik ko‘rgan

o‘qigan bola

guldan nozik

oldinga yurib

9. Arabchadan tarjima qilganda “*otda suvoriyga mingashgan kishi*”ni anglatib, “yo’ldosh”, “hamroh” degan ma’noni bildiruvchi badiiy san’at nima?

radif

qofiya

tuyuq

tajnis

10. Qaysi qatorda istak gap ishtirok etgan? 1. O’qiylik, do’stlar, o’qishning qadriga yetaylik, savodsizlik gumrohlik ekanligini tushunib yetaylik! 2. Yozning issiq kunlari g’animat ekanligini esdan chiqarmangiz! 3. Istaymanki, shoirning orzulari, umidlari haqiqatga aylansa.

1 va 2

faqat 3

faqat 1

1 va 3

11. 6. Qo’qqisdan kirib kelmoq. Ushbu birikmadagi so’zlarning bog’lanish usuli ko’rsatilgan javobni belgilang.

Boshqaruv

Moslashuv

Kelishikli boshqaruv

Bitishuv

12. Insoniyatga tahdid solayotgan XX asr balosi - fashizmni

**yo‘q qilish, hayotni, tiriklikni, or-nomusni saqlash, xalqni
ruhan yengilmaslikka, matonatga undash mavzusi
Shayxzodaning o‘sha yillari chop etilgan qaysi asarlarida
yoritilgan?**

“Kurash nechun”, “Jang va qo‘shiq”, “Kapitan Gastello”,
“Ko‘ngil deydiki”

“O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”,
“Shu’la”, “Chorak asr devoni”

“Ovchi qissasi”, “Iskandar Zulqarnayn”, “O‘n birlar

“O‘rtoq mulk”, “Tuproq va haq”, “Chirog”, “O‘rtoq”, “Meros”

**13. Hokim so‘z sifatdosh bilan ifodalangan so‘z birikmasini
aniqlang.**

kelajakka umid

muzeyga bormoq

mehnatda sinalgan

vazifani bajarib

14. Qaysi qatorda so‘z qo‘shilmasi berilgan?

olma, o‘rik va shaftoli

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

kumush qish

U o‘qidi.

15. Qaysi javobda otli birikma mavjud emas?

mayda qirqilmoq

anorning ikkitasi

shifoli suv

mevalarning hammasi

Manba: test.uzedu.uz

Kanal: @rishton7